“O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlarida” nomli ko‘rgazma ochildi


Joriy yilning 10-dekabrida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyida “O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlarida” nomli ko‘rgazma ochilishiga bag‘ishlangan tadbir bo‘lib o‘tdi.

Unda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari A.Abduxakimov,O‘zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari Milliy assotsiatsiyasi Boshqaruvi raisi, “O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlarida” loyihasi rahbari Firdavs Abduxalikov, O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi direktori X.T.Fayziyev hamda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti professori, t.f.d., akademik Dilorom Yusupova so‘zga chiqdilar.





Ko‘rgazmada 13 jilddan iborat “O‘zbekistonning me’moriy epigrafikasi” (Arxitekturnaya epigrafika Uzbekistana) hamda “O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlarida” (Kulturnoye naslediye Uzbekistana v sobraniyax mira) nomli 10 tomlik kitob-albomlarning namoyishi, shuningdek, Katta Langar Qur’oni faksimile, “Temur tuzuklari”,Sulton Husayn Boyqaroning “Devoni Husayniy” qo‘lyozmasi hamda Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asariga ishlangan 31ta miniatyura faksimili namoyishga qo‘yildi.





Tadbir yakunida mehmonlarga muzey ko‘rgazmalar zallari bo‘ylab sayohat tashkil qilindi.Ushbu ko‘rgazmalar keng jamoatchilikka, ayniqsa mustaqillik, milliy istiqlol, Vatanga sadoqat ruhida tarbiya topayotgan yosh avlodga o‘zligini anglash, davlatimizning boy an’analarini, qadimiy qadriyatlarimizni, ota-bobolarimizning bebaho merosiga mehr bilan boqib, asrab-avaylash kabi xislatlarni yanada chuqurroq anglashda boy manba sifatida xizmat qilishiga ishonchimiz komildir.